

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846541>

**Dilnoza Nazarova**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-bosqich talabasi*

*Tel : +998937588833*

*E-mail : [studentkajahontillari@gmail.com](mailto:studentkajahontillari@gmail.com)*

*[umirzakovnadinloza@gmail.com](mailto:umirzakovnadinloza@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Zafar Nurmatochich Abdusamadov*

*O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti dekani f.f.f.d.,PhD*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola o'zbek tilining adabiy me'yorlari haqida ma'lumot beradi. Dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri hisoblangan o'zbek tili xalqimizning ongi va tafakkuri, o'zligi va an'analarini tanitib berdi. U mustaqil davlatning timsoli, beba ho ma'naviy-adabiy boylik hisoblanib, buyuk qadriyat timsoli sifatida e'zozlanadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan hisoblanishi barchaga ma'lum. Mamlakatimiz miqyosida ushbu boyligimiz borasida bir qancha tadqiqod ishlari olib borilmogda. Men ushbu maqolam bilan adabiy me'yorlar va til mohiyati borasidagi o'z fikrlarimni ochib bermoqchiman.*

**Kalit so'zlar:** *adabiy til, til me'yorlari, turkiy til, til oilalari, davlat tili maqomi.*

**Abstract:** *This article provides information about the literary standards of the Uzbek language. The Uzbek language, which is considered one of the oldest and richest languages in the world, introduced the consciousness and thinking, identity and traditions of our people. It is considered a symbol of an independent state, a priceless spiritual and literary wealth, and is revered as a symbol of great value. Everyone knows that the Uzbek language is one of the largest languages belonging to the Turkic language family. A number of research works are being carried out on this wealth of our country. With this article, I would like to reveal my thoughts on literary norms and the nature of language.*

**Key words:** *literary language, language standards, Turkish language, language families, state language status.*

## **KIRISH**

Bilamizki, til-jamiyat o'rta sidagi aloq-kirishuv vositasi bo'lib, imsonlar o'rta sidagi o'zaro muloqotni taminlaydi, uning ichki kechinma va xayoli mahsullarini og'zaki yozma ravishda ifodalab beradi. Ona tili oldiga qo'yilgan bu mas'uliyat o'quvchi tafakkurini o'tkirlashdan, o'zgalar fikrini anglashga va tahlil qilishdan, o'z ongidagi fikrlarni savodli bayon qila olishdan, kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish va boshqa shu kabi bir qator omillardan iboratdir. Shu sababdan ham ona tilini o'rgatuvchi va takomillashtiruvchi shaxs oldiga yuqorida keltirilgan talablarni qondira

oladigan, har tomonlama mukammal, kamol topgan kadrlarni yetishtirish kabi muhim maqsad biriktirilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Endi esa maqolamizning asosiy qismiga o'tak, sarlavhadan ma'lum bo'lganidek ushbu maqolada adabiy til me'yorlarini ochib berib, tushuntirmoqchiman. Oldin esa o'zbek adabiy tilining ba'zi ma'lumotlari bilan fikrimni ochib bermoqchiman. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 31 ta tovush – fonema mavjud. Ana shu tovushlar tizimi va ularning ifodasi uchun harfiy ifodasiga ega bo`lgan o'zbek tili hozirga qadar 1956- yil 4 -aprelda tasdiqlangan hamda kuchga kiritilgan «O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari»ga binoan ish ko`rib kelmoqda. Vaholanki, o'zbek tilining adabiy imloviy me'yorlari hozirgacha xuddi shu qoidalarga muvofiq amal qilmoqda, yuritilmoxda va bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to`g'risida» 1995-yil 21-dekabrdagi qaroriga asosan 2005-yilgacha davom etdi.

Ushbu qarordan so'ng O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to`g'risida»gi hamda 1995-yil 6-maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to`g'risida»gi qonunlariga asosan ish ko`rilmoqda. Ushbu qonunlar davlatimiz til me'yorlarining barcha jabhalarini qamrab olgan tarzda tuzilgan. Respublikamizda ta'limning har qaysi tizimlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagи «O'zbek tilining asosiy imlo qoida-larini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida faoliyat yuritilmoxda.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, har qanday adabiy til me'yorlari ham ma'lum qonun-qoida va farmonlarga muvofiq yuritiladi. Albatta, bu turdagи hat-hujjat va farmoyishlar tilning takomillashuvi va ravnaqi, har bir soha va tarmog'ini hisobga olgan holda tuzib chiqiladi. Til-millatning, jamiyatning negizini tashkil qilar ekan, unga mas'uliyatli bo'lishga har birimiz mas'ulmiz!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. [fayllar.org/ozbek-adabiy-talaffuzi--orfoepik--meyorlari-reja-i-kirish-ii-a.html](http://fayllar.org/ozbek-adabiy-talaffuzi--orfoepik--meyorlari-reja-i-kirish-ii-a.html)
2. „Adabiy til me'yorlari” H.Mo'minov- 2015y
3. [https://www.google.com/search?q=tilning+talaffuz+me%27yorlari&source=lmn&slbil=657&biw=1366&hl=ru&sa=X&ved=2ahUEwizhqj079n9AhWYxioKHWtmCiIQ\\_AUoAHoECAEQAA](https://www.google.com/search?q=tilning+talaffuz+me%27yorlari&source=lmn&slbil=657&biw=1366&hl=ru&sa=X&ved=2ahUEwizhqj079n9AhWYxioKHWtmCiIQ_AUoAHoECAEQAA)